

BOLANING BEHAVOTIRLIGINI TA'MINLASHDA BEFARQ VA PSIXOLOGIK BOSIMLI MUNOSABAT OQIBATLARINI INOBATGA OLISHNING AHAMIYATI

D.A.Shodieva, B.Usmonov,
Toshkent DYuI

Voyaga yetmagan bolalalarni ijtimoiy va huquqiy jihatdan himoyalash masalalari bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, xususan, mahalla posbonlari, voyaga yetmaganlar bilan ishlash komissiyalari, Vasiylik va xomiylik organi xodimlari va maxsus ijtimoiy, huquqiy ko'mak ko'rsatish Markazlari kabi boshqa idora xodimlari aksariyat hollarda xavf-hatarga duch kelgan vaziyatdagi bolalar bilan ish olib boradilar. Odatda bolaga nisbatan zo'ravonlikning oqibati uning xatarli holatini yanada murakkablashtiradi. Zero, bolaga nisbatan har bir befarq munosabat va ruhiy hamda jismoniy zo'ravonlik uning ruhiyatiga, shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardandir. Mazkur toifadagi bolalar bilan ish olib boruvchi ijtimoiy xodim albatta xavf-xatarda olgan bolaning vaziyatini ijtimoiy, huquqiy yohud pedagogik-psixologik nuqtai nazardan baholar ekan, albatta, kelgusidagi majburiy tadbirlar qatorida bu bolada ro'y berishi mumkin bo'lgan ehtimoliy asoratlarning oldini olish va zarur yordam ko'rsatish tadbirini ham inobatga olishi zarur bo'ladi.

Quyida befarq va shafqatsizlarcha munosabatning ba'zi bir turlari va uning bola shaxsiga salbiy ta'siri borasida to'xtalib o'tmoqchimiz.

Bolaning asosiy ehtiyojlariga befarq munosabatda bo'lish.

Bolaning asosiy ehtiyojlari ota-onalar yoki tarbiyachilar tomonidan qondirilmagan vaziyatini aniqroq qilib "bolalik deprivatsiyasi" deb atash ham mumkin.

Agarda bola quyidagi holatlarni boshidan kechirayotgan bo'lsa, unda bolaning behavotirligi yoki xavf-hatar ostida qolganligi xaqida tahmin qilish mumkin bo'ladi.
Masalan:

- bolaning ovqatlanishi yetarli darajada bo'lmasa, kiyimlari ham kir, yaxshi holatda emas, yashash yoki uxlash uchun zarur sharoitga ega emas;

- bola e'tiborsiz va qarovsiz qolgan;
- betob bo'lib qolganda tegishli tibbiy xizmat olmagan;
- sevimli, yoqimli bo'lish, hotirjam hamda mehrli insonlarning himoyasi ostida yashash kabi hissiy ehtiyojlarining qondirilmaligi;
- muntazam tarzda maktabda tahsil olish imkoniga ega bo'lmasa;
- yosh davri xususiyatlariga mos ravishda zarur rivojlantiruvchi va intellektual taraqqiyotni ta'minlovchi vositalarga ega bo'lmaslik (o'yinchoqlar, o'yin faoliyati, o'quv qurollari);
- ta'limiy-rivojlantiruvchi pedagogik ta'sirning mavjud emasligi (maktabdan so'ng dars tayyorlashga rahbarlik);
- mehnat ekspluatatsiyasi - bola me'yoridan ortiq ishlatiladigan bo'lsa;
- uydagi turli xil mojarolar, o'zaro janjallar natijasida bolaning hissiy jarohatlar olishi, ota-onalar o'rtasidagi kelishmovchiliklar yoki ruhiy kasal bo'lgan ota-onalarning bosimi;
- noahloqiy va nosog'lom sharoitlarning ta'siriga duchor bo'lishi.

Bularning barchasi bolaga nisbatan psixologik (hissiy) zo'ravonlik omillari tarzida tushunilishi mumkin.

Psixologik (hissiy) zo'ravonlik barcha turdagi zo'ravonlikning va bolaga nisbatan befarq munosabatning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotchilar jismoniy va jinsiy zo'ravonlik qurbonlarining psixologik xususiyatlari nafaqat jismoniy jarohatlar bilan, balki bolaning shaxsidagi chuqur jarohatlar bilan shartlangan bo'ladi, deb hisoblaydilar. Har qanday turdagi beshafqat munosabat hissiy zo'ravonlik bilan kechadi.

Hissiy (psixologik) zo'ravonlik turli usullarda namoyon bo'luvchi qo'pol ko'rinishdagi so'zli ifodalar bilan, shuningdek, bolaga nisbatan bemehrlikni namoyon etish, uni rad etish kabi noverbal harakatlar bilan ifodalanishi mumkin. Agarda ota-onalar muntazam ravishda bolani qo'rqitib, unga po'pisa qiladigan bo'lsalar, uni kamsitib, uning mustaqilligi va intiluvchanligiga nisbatan bosim o'tkazsalar, bolada notinchlik va qo'rquv alomatlari paydo bo'lishiga sababchi bo'lsalar, agarda ular kamdan-kam o'z farzandlaridan mamnun bo'lsalar, bunday taqdirda ishonch bilan oilada psixologik xuravonlik mavjudligi haqida gapirish

mumkin bo`ladi. Ota-onalarning o`z farzandlari bilan hissiy muloqot o`rnatmasliklari, o`z muhabbat va mehrlarini namoyon etmasliklari, uni borligicha qabul qilmasliklari, bolaning yutuqlarini qo`llab-quvvatlamasliklari, aksincha, doim kamsitib, o`zgalarning oldida shaxsini toptashlarini ham hissiy zo`ravonlik deb hisoblash mumkin. Buning sababi esa arzimagan bahonalar yoki bolaning qaysidir yoqtirmagan qarindoshiga o`hshashligi yoki kutilmagan va istalmagan homiladorlikdan tug`ilganligi bo`lishi mumkin.

Ota-onalar yoki ularni o`rnini bosuvchi shaxslarning bolaga salbiy ta`sir ko`rsatuvchi hamda uning sog`lom rivojlanishi, o`ziga nisbatan ishonchini yo`qolishiga sabab bo`luvchi, turli darajadagi hissiy va hulqiy muammolarning paydo bo`lishiga sabab bo`luvchi hulqining 5 ta turi ajratiladi.

Befarqlik va bolani qabul qilmaslikka intilish: bolani zarur hissiy qo`llab-quvvatlanish va hayrixohlik hamda mehrdan maxrum etish; behavotir sharoitda yashash va rivojlanishga nisbatan extiyojiga, ota-onaga jisman va ruhan yaqinroq bo`lish, ular bilan muloqot o`rnatish, ular tomonidan qo`llab-quvvatlovchi so`z va harakatlarni bildirilishi istagi va zaruriyatga nisbatan bepisandlik; bolaga nisbatan muhabbati, mehri va e`tiborini bildirga olish qobiliyatining mavjud emasligi.

Rad etish: bolaning imkoniyatlariga, yoshiga mos kelmaydigan talablarning qo`yilishi; ochiqdan-ochiq qabul qilmaslik bolaga doimiy tarzda tanbeh berish, begonalarning oldida uni shaxsini kamsitish, muntazam ravishda o`zgalar bilan solishtirish, bolaning salbiy xususiyatlari va kamchiliklarini o`zgalar oldida ro`kach qilish, bolalik davri uchun xos va tabiiy bo`lgan his-tuyg`u hamda hissiyotlari (qo`rquv, hayajon, yig`i va shu kabilar) uchun ko`pchilik oldida uyaltirish.

*Po`pisa:* uning yoki u uchun qadrli bo`lgan insonni (hurmat qiladigan o`rtog`i) yoki hayvonining (masalan, uy hayvoni, o`yinchoq) jazolanishini, kaltaklanishi yohud o`zgacha tarzda salbiy ta`sir havfini ro`kach qilib po`pisa qilish, qo`rqitish, masxara qilinishi, shu jumladan uyatli so`zlar bilan so`kinishlar; haqoratlar, shaxsining kamsitilishi.

Ajratib qo'yilishi: bolaning o'z tengdoshlari, qarindoshlari, yoki uning uchun ahamiyatli bo'lgan katta yoshdagi insonlar bilan aloqasini asossiz ravishda cheklab qo'yish; uydan chiqishiga ruxsat bermaslik yoki qat'iy cheklovlar qo'yish (masalan, maktabga yubormaslik, sevimli mashg'uloti bilan shug'ullanishiga qat'iy chek qo'yish).

Majbur etish: noijtimoiy xulq-atvorning rivojlanishiga undash (o'g'rilik, fohishalik, pornografiya), spirtli ichimliklar ichish, sog'likka zarur yetkazuvchi vositalarni qo'llash, o'ziga destruktiv ta'sir ko'rsatilishini qo'llab-quvvatlash.

Yuqorida sanab ko'rsatilgan psixologik zo'ravonlik o'zining darajasi va turidan kelib chiqib bolaning rivojlanishi va sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ko'pgina tadqiqotchilar psixologik zo'ravonlik bilan kichik maktab yoshidagi bolalarda aqliy rivojlanishdan orqada qolish muammosi bilan o'zaro aloqadorlik tomonlari aniqlangan. Hissiy qo'llab-quvvatlashning mavjud emasligi, otalardagi psixologik zo'ravonlik alomatlari mavjud bo'lgan xulq-atvori boladagi hissiy, kognitiv, xulqiy va jismoniy funktsiyalarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Hatto "psixologik bukrilik" (Kasatkin) degan tushuncha ham mavjud bo'lib, bunday bola nomaqbul bo'lgan psixologik sharoitda rivojlanayotgan bolaning o'z tengdoshlariga nisbatan jismoniy rivojlanishda, shuningdek, psixik rivojlanishda ham jiddiy orqada qoladi. Vaholanki, bunday oqibatning patofiziologik mexanizmi sifatida somatotrop garmonning (o'sish garmoni) sintez jarayonidagi buzilishlar xizmat qiladi. Nafaqat uning jisman o'sishi, balki bolaning aqliy rivojlanishi ham aynan shu garmonning funktsiyasiga bog'liqdir.

Doimiy tarzda tanbehlar va haqoratli so'zlar bolaning u ota-onasi va boshqa katta yoshdagi kishilar tomonidan hurmat qilinishiga, muhabbatga loyiq emasligi haqidagi tasavvurning paydo bo'lishiga olib keladi. Buzilgan hurmat qilish darajasi sezilarli darajada pasayadi, o'zini idrok etish va qabul qilish sohasi buzilib, bolada o'ziga nisbatan past baho berish rivojlanadi, natijada esa turli psixologik komplekslar, xususan "nomukammallik kompleksi" shakllanadi. Bunday bolalar tasodifiy vaziyatda moslashish mobaynida o'zini gavdalandirishning turli xulq-atvorli usullarini namoyon etishga urinadilar. Bu kun davomida o'zini chetga tortish, fantaziya qilishga,

xavotirlanishga moyillikni namoyon qilishdan tortib, to jahl qilish, agressiv va noijtimoiy xulq-atvorni ko`rsatishgacha boradi. Agressiya va jahl nafaqat boshqalarga nisbatan, balki o`ziga ham qarshi yo`naltirilishi mumkin.

Retrospektiv tadqiqotlarning ko`rsatishicha, onaning o`z farzandidan voz kechishi xatto katta yoshlarda ham o`ziga nisbatan bahoning pastligi, turli xil stressli vaziyatlardan chiqib keta olmaslik, hayotiy muammolarni xal etishdagi qiyinchiliklarga bardosh bera olmaslik, o`zgalardan yakkalanishga intilish, ba`zan esa depressiyaning rivojlanishi, samodestruktiv xulq-atvor kabilarning saqlanib kolishiga ta`sir ko`rsatadi.

Ota-onalarning bir xil ko`rinishdagi xatti-harakatlari, masalan, rad etish, po`pisa qilish, bepisandalik bilan munosabatda bo`lish, boshqalardan ajratish kabilar bolaning turli rivojlanish yosh davrlarida (go`daklik, bog`cha yosh davri, kichik maktab yoshi, o`smirlik davrida) turlicha ta`sir ko`rsatadi. Yoshi kattaroq bolalar bunday vaziyatlardan chiqish yo`lini topa bilsalar yohud o`z tengdoshlari, o`qituvchilari, ahamiyatli bo`lgan yoshi katta boshqa insonlar tomonidan hissiy qo`llab-quvvatlanish hisobiga kompensatsiya qilinsalar, kichik yoshdagi bolalar tashqaridan hissan quvvatlanish imkoniyatiga ega bo`lmaydilar. Shuning uchun ular ko`pincha psixologik zo`ravonlik qurboni hisoblanadilar. Agarda bola go`daklik davrida ona tomonidan tashlab ketilgan bo`lsa, undagi hissiy va xulqiy muammolar o`smirlik davriga kelib murakkablashib boradi.

Tadqiqotlarning ko`rsatishicha, oilada psixologik zo`ravonlikka duchor bo`lgan ilk bolalik davridagi (3 yoshgacha) bolalarga uyquning buzilishi, ishtahaning pasayishi, bexavotirlik, bolalar bilan o`yinda esa o`yin jarayoniga kirisha olmaslik, psixo-nutqiy rivojlanishdan orqada qolish, barmog`ini so`rish kabi harakatlar xosdir.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda esa maktabda tahsil olish bilan bog`liq hamda muloqot o`rnatish ko`nikmalarining mavjud emasligi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Bu esa o`z navbatida, bolaning tengdoshlari tomonidan qabul qilinmasligi, noma`qul ijtimoiy ko`nikmalar, hayvonlarga nisbatan beshafqatlik shakllanishida namoyon bo`ladi.

Pubertat davridan oldingi davrda esa uydan qochish vaziyatlari (ba'zan hatto tashqaridan qaraganda "namunali" bo'lib ko'ringan oilalarda ham), deviant-delikvent xulq-atvor, surunkali darajada maktab ta'limini o'zlashtira olmaslik muammosi, nevrozlar kuzatiladi.

Pubertat, ya'ni o'tish davrida esa - depressiya, agressiya, ya'ni tajovuzkorlik kabi salbiy va shaxsini buzuvchi xarakter xususiyatlari hamda xulq-atvor o'sadi, o'ziga nisbatan past baho berib, ko'pincha psixosomatik kasalliklarga duchor bo'ladi.

Bolalarga emas, balki uning oldidagi boshqa insonlarga nisbatan uydagi zo'ravonlik, bolaning xulq-atvoriga - ularning bilish sohasi qobiliyatlariga, hissiy funktsiyalari, o'zining shaxsiy muammolarini mustaqil tarzda xal qila olish ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Er-xotinlar o'rtasidagi zo'ravonlik vaziyatlarini guvohi bo'lgan bolalar sog'ligining yomonligi, uyqusidagi bezovtalik, insonlarga nisbatan bog'langanligi sohasida ham patologik alomatlarining mavjudligi bilan ajralib turadilar. Oila tizimi ichidagi munosabatlardagi nosog'lomlik hissiy zo'ravonlik havfi ehtimoli mavjud bo'lgan omillar toifasiga kiradi.

Psixologik zo'ravonlikning mavjudligi, odatda bolaning sog'ligidagi muammolar (masalan, enurez, ya'ni bolaning uyqusida siyib qo'yishi, peshobni ushlab tura olmaslik) bilan, yohud boladagi turli xil xulqiy muammolarning mavjudligi, uning uydan qochishi, maktabda bilimlarni o'zlashtira olmasligi muammosi bilan murojaat etgan oila bilan ishlash mobaynida aniqlanadi. Ko'pincha ota-onalar bu kabi muammolarning ya'ni rivojlanishdagi buzilishlar, bola xulqidagi o'zgarishlarning asl sabablari haqida shubha ham qilmaydilar, hatto bolaga nisbatan qilayotgan muomalalarining to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida o'ylab ham o'tirmaydilar. Mutaxassislar murojaat etishdan maqsad odatda o'zlariga (ota-onalarga) zarur yo'nalishda bolani o'zgartirish bo'yicha maslahatlar olishdan iborat bo'ladi.

Bunday vaziyatda tor doiradagi mutaxassis hamda ijtimoiy xodimning vazifasi oilani boladagi mavjud bo'lgan buzilishlarga ta'sirli sabablarini aniqlashga qaratilgan chuqur diagnostik o'rganishli tadbirni o'tkazishdan iboratdir. Bunday sabablar orasida spirtli ichimliklarga ru'ju qo'yish, narkomaniya, oiladagi turli xil va darajadagi zo'ravonlik hamda ruhiy nosog'lomlik bo'lishi ehtimoldan yiroq emas. Bu

esa o'z navbatida bola uchun bezarar bo'lgan sharoitni ta'minlashga qaratilgan ekspert tadbir va qarorni qabul qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Boshqa tomondan esa bolaga nisbatan hissiy zo'ravonlikning asl sabablaridan biri bo'lib, ota-onalarning o'z ota-onalik vazifalarini bajarish bo'yicha bilim va ko'nikmalarining yetishmasligi bo'lishi ham mumkin va ehtimol ular o'zlarining ustlarida ishlashga ham tayyordirlar. Farzandlarni yetuk inson bo'lib tarbiyalanishida oila va atrof muhitni ahamiyati katta ekanligini anglashdir.